

**ULUG'BEK HAMDAMNING „SABO VA SAMANDAR“ ROMANIDA
„ZAMONAVIY LAYLI MAJNUNLAR“**

Ergasheva Nilufar Nosirjon qizi

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti adabiyotshunoslik magistranti.

***Annotatsiya:** Maqolada Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romanida yoritilgan ish mavzusi, qahramonlar sur'ati, ruhiy tahliliy qarashlar haqida so'z boradi. "Sabo va Samandar" romani orqali zamonaviy va tarixiy muhabbat talqin qilindi va yoritildi.*

***Kalit so'zlar:**zamonaviy ishq, ijtimoiy muhit, ilohiy ishq, asrlarni yig'latgan his.*

Adib Ulug'bek Hamdam ma'naviy-axloqiy, falsafiy-estetik qarashlarini asarlariga nozik muhrlab boradi. U xoh nazm, xoh nasrda qalam tebratmasin, insonning hissiy kechinmalarini, betakror ohangda yoritishga muvaffaq bo'ladi. Muallifning „Sabo va Samandar“ romanida muhabbat yangicha talqinda namoyon bo'lgan. Asarda ijtimoiy muhit, shaxs va jamiyat munosabati keng ko'lamda tasvirlangan. Ma'lum soha kishilarning taqdiri, ularning ruhiyatida kechayotgan murakkab jarayonlar badiiy tadqiq etiladi. Asar boshida o'qiganimizdek muallif zamoniy Layli va Majnunni yaratmoqchi bo'ladi. Lekin asar Muhabbatga qo'yilgan haqiqiy haykaldir. Muhabbat! Shu birgina so'zni eshitgandayoq insonni hayollar va orzu ummoniga bo'yniga sirtmoq solinganday tortib ketadi. Xalq dostonlari, badiiy asarlar, she'rlar kata-katta davrlarni o'tsa ham yo'qolmay kelayotgan romanlarning aksariyat syujet iplari muhabbat asosiga qurilgan. Muhabbat! Sevib-sevilmagan, kamida chinakamiga sevmagan kishi bu asardan zavq ololmaydi. Shunchaki sevgi haqida sal bo'rtirilgan chiroyli asar, deb qo'ya qoladi. O'zligini anglash yo'lidagi har bir insonda kamida bir marotaba kuchli ruhiy inqiroz davri bo'ladi. (Kimsan Tolstoyda ham yoshlik, ham keksalik davri bo'lgan.) Shunda savollar tug'iladi: Men kimman? Bu dunyoga nima uchun keldim? Hayotning ma'nosi nima?

Qayerdan keldim? Qayerga ketaman ?Ruh bormi? O'lgandan keyin ruh yashaydimi? U dunyo bormi? kabi, chin dildan, chin yurakdan sevgan insonda bunday savollar bo'lmaydi chunki uning hayotdan ma'nosi bor, u boshqa ma'no izlamaydi. Kimdir(lar) aytishi mumkin faqat Ollohni sevinglar deb lekin o'sha ilohiy ishqni tangrining o'zi qalbga soladi.Bu asarda ham ming yillardan beri nomi doston bo'lgan o'sha ilohiy ishq kuylanadi.

Nodir va Nilufar bu obrazlar ishq mojarolarimizning yetakchi sababchilari. Nodir va Nilufar bir qishloqda, bir mahallada, bir devor atrofida lekin boshqa-boshqa osmon ostida yashovchi qo'shnilardir. Boshqa osmon deyishimning sababini keyinroq izohlab ketaman.

- Dadang ishdan keldimi?

- Endi kep qoladi, - atrofni o'z xush bo'yi bilan rom aylay boshlagan ariq qiyisidagi yalpizlardan ko'z uzmay javob berdi Nilufar . Shu misrasi orqali o'zbek qiziga xos ibo-hayoni ko'rishimiz mumkin. Suhbat ohirigacha ibosini saqlab borayotgan qizni yigitni yuziga boqishga nima majbur etdi deb o'ylaysiz albatda o'sha ilohiy asrlarni yig'latgan hisning hayajoni. Qaysi o'qishga topshirmoqchisiz ,agar sir bo'lmasa ?

- Xuquqshunoslikka

-Voy !... – qiz „yalt “ etib yigitga qaradi...

-Sizammi?....Vaqt-soati kelmaguncha, ko'k to'la qora bulutlardan bir tomchi yerga tushmaydi. Zamin o'z bahor quyoshida yetarlicha isitib olmaguncha ,biron giyoh undan bosh ko'tarib chiqmaydi. To'lib turgan piyolaga bir tomchi suvning tomishi uning toshib ketishi uchun kifoya... Xuddi shu vaziyatda qizning yigitga „yalt“ etib yigitga bir bor boqishi yu ”Sizammi!” deya unga savol ichida tikilib qolishi Nilufarning harakterida va hissiyotida o'zgarish yuz berganini va qandaydir his uyg'ona boshlanganini ifodalaydi. Fursat- yugurik suv, hash-pash deguncha Nilufar ham Andijondan shahri azim Toshkentga keldi, yuridik insitituti talabasi bo'ldi. Endi u Nodir bilan istasa har kun ko'risha olar, uning ko'zlaridagi fusunkor tubsizlikka g'arq bo'lib, sehrli suhbat kemasida arg'uvoniy ufqlarga qadar suzishi mumkin edi . Biroq, yo'q! O'lis vodiyning uzoq Mingtepasidan bu qiz shunday qila

olarmidi?.. Ushbu misralar Nilufarning qishloq qizlariga hos ibo-hayosi harakteri orqali butun musulmon ayoli hos iffat chizgilarda ifodalangan. Asar voqealari davom etar ekan ayol harakteri tadrij asosida o'sib borishi kuzatiladi. Ular uyga qaytishyapti... Ikki asar qahramonlari poyezddagi hamrohlariga hazil tariqasida bir haftadan so'ng to'y degan gaplarining haqiqatga aylanayotganini bilishmasdi ham. Ana endi men sizga hali yodinggizda saqlashingizni aytganim boshqa osmon ostidagi odamlar degan gaplarimiz yuzaga chiqadigan payt keldi. Nilufarning otasi Kamol Aka qizini hokimning o'g'liga uzatmoqchi. Teng tengi bilan tezak qopi bilan. Shu maqol ostida qancha insonlar baxtsizlik ummoniga kemasiz, g'arq bo'lib ko'nglidagi tubsiz jarlikda ado bo'ladilar. Ular tangrini yaratganni qudratini unutdilar. Bu gapni sevib ado bo'lgan insonlarni tilidan so'zladik. Endi yurak bilan emas asarni aql yuzasidan tahlil qilamiz ota-onalar borki har qanday vaziyatda ham farzandlari baxtini ko'zlashadi. Bir tarafdin otani qoralashga ham haqqimiz yo'q .- Ayajon, nima qilyapsizlar o'zi? Men... axir odamman!?- ko'zlaridan beixtiyor kelgan ko'z yoshlariga tiqilib. Yozuvchini bino quruvchisiga mengzashimiz mumkin chunki quruvchi binoga ortiqcha ham, kam ham ishlatmaydi. Bu misralarda uch nuqta orqali qizning avvalo onasiga murojattga aslida andisha qilayotgani, axir odamman so'zidan keyin undov va so'roq belgisining qo'llanishi kuchli hishayajondaligini hamda so'roq belgisining qo'llanishi qizning odammanmi? Erkim bormi? Inson sifatida fikrimni so'raysizlarmi degan ma'noni ifodalaydi. Qahramonimiz vaziyatni o'z izmiga bo'ysundurmochi lekin uning urinishlari behuda ketayotgandi. – Xilola opa Nilufarni quchmoqchi edi, bo'lmadi: qizi tisaralib o'zini orqaga oldi. – Nilufa-a-ar!- hayron bo'lib qo'lini oldinga co'zdi ona . Ona endi tobora qizini yo'qotib borayotgandi, qiz ham onasining qalbidan nafaqat dunyodan qochayotgandi ona o'z hislariga ko'milib eridan ayollik andishasini qilib qiziga yordam berolmasdi. Ona qiziga bir tarsaki urdi. „Keyin zumda yuragini allabir g'ashlik chulg'adi. Goh qiziga, goh ochiq kaftiga boqib garangsidi. Axir u bolalariga hech qachon qo'l ko'tarmagan edi.” Taqdir haqida so'z borar ekan xalq orasida turli fikrlar yuradi ” Inson tug'ilmasdan uning taqdiri peshonasiga yozib qo'yiladi” deyilsa yana kimdir inson taqdirini o'zi yaratadi. Bu taqdirni kim yaratdi

yo'q chunki u bu voqeani real hayotdan oldiku, otami?, onami? Yoki Nilufar bilan Nodirmi bu savolga javob kitobxon emas yozuvchi ham javob oldida ojiz. Ona endi qizining vaziyatini anglab otaga qarshi borishga botindi lekin natija yo'q edi, hayot tizginini qo'lga olgan ota yillar poyezdini tobora relis yo'q oxiri yo'q yo'lga tomon burardi.

Kamol rahbar qiziga har taraflama tushuntirdi, bosim o'tqazdi lekin bu gaplar o'chib qolgan o'tni pudaganday besamara ketardi, rahbarning nafasi charchaganicha qolardi. Muhabbat shunaqa narsaki seni aqling, yuraging hatto tanangni boshqaradi. Ota, ona g'urur milliylik, o'zbekchilik qani endi tanasi ishqdan kuygan oshiq'larga buni anglatib bo'lsa yo'q buni iloji yo'q. Ming taassuflar bo'lsinkim, bularning hech biri, hatto otaning yanoqlarini yuvib tushgan shashqator ko'z yoshlar ham qizning yuragidagi muzni erita olmadi. "Ular ham biz kabi xo'jalardan. Qo'shilsak qonimiz aynimaydi." Butun dunyo odam at ova Momo havo avlodlari bo'lsa hoji va faqir qayerdan keldi, bizni saodatga eltuvchi dinning noto'g'ri anglashdandur. Nilufarlarnikida "to'y" taraddudi avjida to'yning nog'ora-yu karnaylari Nodirning qulog'iga ajroil chaqirig'iday kirar magnitafonni ovozini qancha balantlatsa uni ham buzardi. Uzoq vaqtlik ayriliq, to'y azobidan ayriliqda yurgan „Layli va Majnun“ bugun diydor ko'rishishdi. Majnun Laylini taslim bo'lgan deb o'ylardi yo'q Layli endi shu darajaga yettiki o'lim ham uni qaytara olmaydi.

- Yo'q, yo'q! –yigitning og'zini kafti bilan to'sdi qiz.- Bas qiling!

-Nilu, shoshma, gapimni oxiriga yetkazay ,- yigit qizning qo'llarida o'pdi. – Yo'qsa, keyin bir umr pushaymon qilishim mumkin eshityapsanmi, bir umr!.. Ular daryoni bo'yida o'tirib bir biriga shu qadar yaqin ediki ularni endi o'lim ham ajrataolmasdi. Bu misralarda Nilufar obrazi kulminatsiya nuqtasiga yetdi. Bu orada o'zbek va qirg'iz tuprog'ini qoq ikkiga bo'lib, ayni chog'da ularni birlashtirib oqayotgan kanal suvi tobora pishqirib, guvlanib, xirslanib to'lg'onardi. Suvning ko'pligidan va oqimning zo'rligidan kanal oyning nurida xuddi oq asov otdek o'ynoqlar, zulmatda sermalayotgan olmos qilichdek ajabtovur yaltirar, ko'zi tushgan kishini sohir va vahmli hayollarga yetaklardi. Ushbu misralarni bevosita mutolaa qilarkanmiz o'zbek va qirg'iz tuprog'ini ikkiga ayirayotgan daryo bo'lsa

Nodir va Nilufarni ayirayotgan esa taqdir to'liqlari edi. " - Endi siz meni qo'rqityapsiz, -Nilufar shovqin solib oqayotgan suvning bo'yiga yaqinroq keldi, Nodir uni tasodifan suvga tushib ketishidan xuddi asrab qolmoqchi bo'lgandek orqasidan ergashdi, agar taqdirimda Murodjonga tegishdan o'zga yo'lim qolmasa, shu quturib oqayotgan suv meni yutsin, roziman !..” Yozuvchi bu misrani bejizga qo'llamadi Chexov " Asar boshida devorda osig'lik turgan miltiq turgan bo'lsa u asar oxirigacha otilishi kerak deydi" aynan shu misralar bevosita Chexov so'zlarini yodga soladi . Miltiq asarning shu qismida o'qlandi va o'qlanganini yodimizdan chiqarmay vaziyat kulminatsiyasida davom etamiz. Ikki Layli va Majnun o'zlariga vada berishdi va orzular yukini yelkaga ortib uylariga ketishdi. Go'yoki ular endi hamma narsani hal qilgandilar. Lekin Nilufarning uyidagilar hatto butun qishloq judolik to'yiga tayyorlanishardi. Hech kim Nilufarning holini anglamas Nilufar qalbidagi dovul Kamol rahbar hayol daraxtini birorta bargiga ta'sir etmasdi. Qani endi osiy bandalar sevgini anglashsa tushunishsa, bu oddiy ibo-hayo nozi emas balki qalb ingrashi uning so'zlagani ham kuchi qolmaganini anglashsa edi... Endi to'yi yaqinlashgan kelindan habar olamiz : Ochiq eshikdan shundoq ko'rinib turibdi: laylisaro Nilufar tizzalarini quchib, yuzini ularning ko'ziga bosib o'tirib olgan, tepasida qo'llariga oppoq fatani ushlab olgan to'rt-besh ayol nimalarnidir jon kuydirib uqtirgani uqtirgan, lekin har qancha zo'r berib sanjoblarga solishmsin, shikvali Nilufar boshini „, Yo'q" ma'nosida sarak-sarak qilgani qilgan... Yo'q, kitobxon bu yerda kitobxon ortiq bu jon o'rtar manzara qarshisida turolmaydi . Dilpora Nilufarga qo'shilib mening ham yuragim tars yorilay deyapti, havo yetishmay qoldi bu yerda, yuring kitobxon bu yerdan ko'ra Ming tepaning dalalariga ketish yaxshiroq. Va nihoyat kutilgan to'y kuni ham yetib keldi o'sha oppoq libosni ham kiydirishdi lekin u libos baxtga eltuvchi emas balki boshqa vazifaga xizmat qildi. Nilufar hursand Murodjon bilan baxtli bo'lib ketdi deb o'ylaysizmi afsuski yo'q. Nodir va Nilufar arang chopib to'ydan, taqirdan, olomondan, hayotdan qochib daryo tomon qochib kelishar edi. Olomon yetib keldi. Ana u, ana ! Bir-birlariga gal bermay oldinga oshiqayotgan, kechirilmas gunoh qilgan jinoyatchilarga birinchi bo'lib zarba bergisi kelgan kabi mushtlarini havoda

o'ynatayotgan ko'zi qon va jaholatga to'lgan olomon – ana!! Bazilarining qo'llarida hatto kaltak, tosh ko'rinardi... Nega?! Axir ularning orasida Nodir va Nilufarning qon qarindoshlari-yu jon do'st dugonalari ham bor-ku! Kitobxon romanni mutolaa qilar ekan asta chuqur mulohazaga cho'kadi ikki yosh kimga azob berdi ota-onasiga-mi xalqga-mi?.. Nodir ham, Nilufar ham bir zum tardudlanmasdan, ikkilanmasdan baravariga o'zlarini quturib oqayotgan suvning qariga otdilar!.. Xaxa, aynan shunday qildilar! Chunki orqadan pusib bostirib kelayotgan olomon bebosh oqayotgan suvdan-da qo'rqinchliroq edi ular uchun!.. Ikki sevgi qurbonlari suvda go'yo kuzgi xazondagi ikki zazon kabi oqib borar faqat bir-birini qidirar endi topganda asvov to'lqin yana ularni ajratardi. Ikki xazon ikki qirg'oq tomon ajralib ketar Nilufar qirg'oqqa yetsa ham suvdan qutulgisi kelmas men qutilsam Nodirchi deya yana suvning to'lqini tomon yana g'arq bo'lardi.Olomonchi endi o'sha olomonning bazisi yig'lardi, bazilari esa vijdon azobidan qiynalishardi. Suvdagilar esa hech narsadan habarsiz hayotdan voz kechib oqib borishardi. Nodir va Nilufarning bir-birlariga suyanib qolgan boshlari po'rtanalar aro bir kirib, bir chiqib ko'rinar, tobora uzoqlashgani sari bittaga –yagona borliqqa aylanib borardi. Ular endi atrofni, olomoni, olamni unutishgan va hech qanday harakat qilishmasdi. Kim biladi deysiz, ularning hayotdagi eng qutli damlari ayni shu bir necha daqiqada kechgandir... Va ushbu g'animat damni shundoq ham omonat jonlarini xalos etishga sarflashni istashmagandir. Xudo biladi, sohilga chiqib qutulgan jonlarida yana shunday komronlik imkoni bo'larmidi-yo'qmi? !..Nima bo'lganda ham, o'limkor dolg'alar Nodir va Nilufarning mungli va mag'rur boshlarini manguga g'arq etganida ular ular bir-birlarining quchoqlarida masud edilar... Halloslab, shovqin solib kelayotgan olomonning kapalagi uchib, taqqa to'xtadi, eng oldingi safda turgan Kamol rahbarning qo'lidan kaltak sirg'anib tushdi, so'ng o'zi ham uning yoniga hushsiz yiqildi... Ayol nima uchun, ayol erki qani, ota-ona orzusichi kitobxon shu ikki savol o'rtasida sargardon oshiqlik aybmi, sevgi gunohmi javobini kim topadi bu savollar na shoir, na yozuvchi, na kitobxonning so'z topmoqqa iloji yo'q faqatgina kitobxon asar tugashida achinish savollar hissi bilan qoldi .

Yozuvchi romandagi Nilufar obrazi harakterini tadrij asosida ochib beradi va yakunda tadrij yuqori cho'qqisiga chiqdi.

REFERENCES

1. Yo'ldosh Qozoqboy. Yoniq so'z. T.: Yangi asr avlodi, 2006.
2. Sharafiddinov Ozod. Ijodni anglash baxti.T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.
3. Quronov Dilmurod. Adabiy jarayonda Mom sindromi. www.ziyouz.uz
4. Hamdam Ulug'bek. Sabo va SamandarT.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.